

## **Xalq amaliy sa'nat turlaridan zardo'zlik va do'ppido'zlik tarixi haqida**

***Choriyeva Mayram Umar qizi***

*A.Qodiriy nomidagi JDPI, Texnologik ta'lim yo'nalishi*

*2-kurs talabasi, Jizzax, O'zbekiston.*

*e-mail: [mayramchoriyeva7@gmail.com](mailto:mayramchoriyeva7@gmail.com)*

*Ilmiy rahbari: Donyorova Sh. E.*

***Annotasiya:*** *Ushbu maqolada xalq amaliy san'at turlaridan zardo'zlik, do'ppido'zlik tarixi haqida fikir yuritiladi.*

***Kalit so'zlar:*** *Zardo'zi, do'ppido'zlik, texnologiya.*

***Аннотация:*** *В статье рассматривается история золотого шитья вышивки из народных промыслов.*

***Кчевые слова:*** *Вышивка вышивка технология.*

***Annotation:*** *This article discusses the history of gold embroidery, embroidery from folk arts.*

***Keywords:*** *Embroidery, embroidery, technology.*

”Zardo’zi” - fors tilidan olingan so’z bo’lib, zar-tilla, do’zidan tikmoq , ya’ni tilla ipi bilan tikmoq degan ma’nosini bildiradi. Asosan qizil Buxoro do’ppilari, oq bo’zga, sariq satinga , turli rangdagi guldo’zi, „Zardo’zi-zamindo’zi” usulida tikilgan, “Qadimda ham, hozir ham zardo’zlik bilan shug’ullanayotgan hunarmandlarni “zardo’z” deb atashadi. O’zbekiston kashtachiligining noyob turi zardo’zlik sanatsi ta’savvur qilib bo’lmaydi. Bu san’at o’rta asrning o’rtalarida Buxoroda gurkirab rivojlangan. U yerda mohir ustalar amir saroyining ustaxonalarida amir va uning saroy ahli kiyadigan dabdabali kiyimlarga parдоз berishgan. Zardo’zlik odatda erkaklarga munoib bo’lgan va ular o’z hunarlarini bolalariga meros qilib qoldirishgan. Zardo’zlik san’ati o’zining uzoq tarixiga ega bo’lib, deyarli barcha Sharq mamlakatlari uning vatani hisoblanadi. Zardo’zlik san’atining an’analari o’z davrida ham mavjud va mashhur bo’lgandir.



Buxoro zardo'zi ashyolarining deyarli hammasi amir saroyining ehtiyoji uchun ishlatilgan, faqat juda oz miqdorigina sotish uchun bozorga chiqarilardi. U payda zardan tikilgan erkaklar kiyimlarini faqatgina xonga va uning qarindoshlariga tegishli insonlar kiyar edilar. Hech kim, hatto eng katta amaldorlardan birontasi ushbu qimmatbaxo kiyimlarni o'ziga buyurtirishga haqqi yoq edi. Ayollar va bolalarning zardo'zi kiyimlarni esa faqatgina badavlat xonadon a'zolari kiyishga haqli edilar.

Mustaqillikka erishgan kunimizdan boshlab davlatimizning butun siyosati o'zligimizni qayta tiklash va mustahkamlashga qaratildi. 1997-yil 31-martda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining "Xalq badiiy xunarmandchiligi va amaliy san'atini yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni e'lon qilindi.

Zardo'zlik- qiziqarli va ijodiy ish bo'lib, u insonga ko'p quvonch keltirishi, bo'sh vaqtda ermak bo'lishi, insonni nafosat olamiga olib kirishi mumkin. Zar tikish usullarini o'zlashtirayotganda hamma narsa birdaniga yaxshi chiqmasligi mumkin, chunki zardo'zlik sabr- toqatli, e'tiborli, tartibli bo'lishni talab etadi. Chidami bo'lish lozim.

Uy-ro'zg'orda ishlatiladigan zardo'zi buyumlar inson atrofidagi narsalar uchun mo'ljallangan bo'lib, insonga estetik zavq bag'ishlash va uning ijtimoiy mavqeini ko'rsatishga xizmat qilgan.

"Do'ppi tikdim... ipaklari tillodan", - deb kuylanadi mashhur o'zbek qo'shig'ida. O'zbekistonda do'ppi nafaqat kiyimning bir jihati, balki xalq ma'daniyatining tarkibiy qismidir. Bugungi kunda shaharliklarning boshida do'ppini faqat ayrim holatlarda: oilaviy tantanalar, dafn marosimlari yoki bayramlarda ko'rish mumkin.



Ammo bundan bir necha o'n yillar oldin do'ppi O'rta Osiyoda asosiy bosh kiyim turi bo'lgan. Uni erkaklar va ayollar, bolalar va qariyalar kiyardi. Shartli ravishta do'ppilar bir nechta guruhlarga bo'linadi. Bular: Toshkent, Buxoro, Samarqand, Farg'ona, Xorazim-Qoraqalpoq va Qashqadaryo- Surxondaryo do'ppilaridir. Milliy bosh kiyimlar yumshoq yoki qattiq matodan tikib, kashta yoki munchoqlar bilan beztiladi, unga yumaloq yoki kvadrat shakil beriladi.

Hozirgacha xalq orasida do'ppilar haqidagi afsonalar va rivoyatlar saqlab kelindi. Rivoyatlarga ko'ra, erkaklar do'ppisining yuqori qismidagi to'rtta gul odamning sog'lig'ini to'rt tomondan himoya qiladi, do'ppi chetidagi o'n oltita gul esa katta va ahil oila bo'lish tilagini bildiradi. Ular to'rtta qalampir boshchalari ko'rinishidagi oq naqishning qora fon bilan keskin birikivi bilan ajralib turadi. Qorong'i fonga oq ip bilan tikilgan gullar inson qalbi va yuragi pokligining ifodasi bo'lib xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. S.Bulatov "O'zbek xalq amaliy bezagi san'ati" 334-341 betlar Toshkent.
2. D.Murodova. "O'zbekiston Do'ppilari". Toshkent. 2004
3. M.Akromxo'jaev. R.Akromxo'jaeva. "Zardo'zlik" Toshkent.
4. "O'zbek milliy kiyimlari" kitobi.
5. "O'zbekiston ensiklopediyasi".
6. Buxoro va Samarqand milliy kiyimlari; Sharq-2006